

**AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH
VAZIRLIGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
UNIVERSITETI FARG'ONA FILIALI**

“Kompyuter injiniring” fakulteti

“Axborot texnologiyalari” kafedrası

“Multimedia tizimlari” fanidan

REFERAT

Bajardi:

A.Madaminov

2014 - Farg'ona

Mavzu: IX-XII asrlarda o'zbek davlatchiligi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayot. G'aznaviylar davlati.

R e j a :

I . KIRISH

II . ASOSIY QISM

- 1. IX-XII asr boshlarida Toxiriy, Safforiy va Somoniylar davlatlari. Ularning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayoti.**
- 2. Qoraxoniylar, G'aznaviylar davlatlarining ijtimoiy va iqtisodiy hayoti.**
- 3. Xorazmshoh sulolasining o'rnatilishi, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayot.**
- 4. G'aznaviylar davlatini boshqaruv tizimi va ilm- fan taraqqiyoti.**

III. Xulosa.

Arab xalifaligi xududida mahalliy xalqning hukmron mahmurlar zulmiga qarshi qo'zg'olonlari avj olgach, xalifalik o'zlariga sodiq maxalliy zodagonlarni tobeh yerlarni boshqarishga jalb qila boshladilar. Shu munosabat bilan Xurosondagi toxiriylar xonadoni kuchayadi. Seyiston hokimi Abumuxammad Talxa ibn Abdullox qo'lida mazkur xonadon boshlig'i Roziq xizmat qilgan. Uning Mushab, Xusayn va Toxir degan farzandlari Xirot viloyatidagi Bushanj shaxrini boshqarishgan.

Ma'lumki, Xorun ar-Rashid (786-809 yy.) vafotidan keyin uning o'rniga katta o'g'li Amin xalifa bo'ldi. Xuroson noibi bo'lib turgan uning kichik o'g'li Abdulla (keyin Mahmud laqabini olgan) hokimiyat uchun kurashda Toxir yordamidan foydalanadi. Toxir qo'mondonligidagi qo'shinlar Amin lashkarlarini tor-mor keltiradi. 813 yili Mahmud Bag'dodni egallagach, Toxirni sioxsolor etib tayinlaydi. 821 yilda esa Toxir Xuroson viloyatiga noib bo'ladi. 822 yili Toxir o'ldirilgach, uning o'g'li Talxa (822-828 yy.) hokim bo'ladi. Undan keyin Toxirning ikkinchi o'g'li Abdullox (828-844 yy.) taxtga o'tirdi. 833- yilda Mahmud vafot etgach, Abdulla o'zini xalifalikdan mustaqil deb e'lon qildi. Davlat poytaxti Marv (keyin Nishopur) bo'ldi. Toxiriylar davlatiga Tabariston, Jurjon, Ray, Kirmon, Xuroson, Seyiston, Movarounnahrning janubiy qismi kirgan. Xalifa Mahmudga xizmatlari evaziga mulkka ega bo'lgan Somonxudotning nabiralari Nux (Samarqand), Ahmad (Farg'ona), Yaxyo

(Choch va Istaravshan), Ilyos (Xirotdan) nomiga bo'lsa ham, toxiriylarga qaram edi.

IX asr o'rtalarida axolining quyi tabaqasidan bo'lgan safforiylar mavqei kuchayadi. Yahqub ibn Lays va uning Amir, Toxir va Ali degan inilari 861 yilda Seyistonni, 867 yili Xirotdan va Bushanjni, 869 yilda Kirmon va Forsni qo'lga kiritadilar. 871 yilda xalifa Mo'htamid (870-892 yy.) Yahqubni Balx va Toxariston hokimi etib tayinlash haqida yorliq jo'natadi. 873 yilda Yahqub toxiriylar hukmdori Muhammad ibn Toxirning qo'shinlarini tor-mor keltirib, toxiriylar davlatiga barxam beradi, yangi **Safforiylar davlati** tashkil topadi. Mamlakatda sodir bo'lgan bunday siyosiy o'zgarishdan so'ng Movarounnahr Xurosondan ajralib o'z mustaqilligini to'la tiklab olish imkoniga ega bo'ldi.

Somoniylar davlatiga Somon ishlog'i (Balx yaqinida, ba'zi manbalarda Termiz yaqinida) oqsoqoli Somonxudotning avlodlari asos solgan. Movarounnahrning Samarqand, Farg'ona, Shosh (Toshkent) va Ustrushona viloyatlarida Somoniylar xonadonining vakillari noib edi.

Xalifa Mahmunga bo'lgan sadoqatlari evaziga 819-820 yillarda Somonxudotning nabiralari Nux Samarqandga, Ahmad Farg'onaga, Yahyo Choch va Istaravshanga, Ilyos Xirotdan hokim etib tayinlandilar.

839-840 yillarda Nux ibn Asad Isfijob viloyatini bosib oldi va uni mustahkamladi. U So'g'dning bir qismi va Farg'onaga hokim bo'lib oldi. Lekin Somoniylar davlatini buyod etishda Ahmadning xissasi ko'proq bo'ldi. Uning Nasr, Yahqub, Yahyo, Asad, Ismoil, Isxoq va Homid ismli o'g'illari bor edi. Nux ibn Asad 842 yili vafot etgach, Samarqandni ukalari Ahmad va Yahyo boshqardi; keyin hokimlik Nasr (865-892 yy.)

qo'liga o'tdi. 856 yilda Yahyo ibn Asad vafot etgach, Choch va Istaravshan Ahmadning ikkinchi o'g'li Yahqubga nasib etdi. Buxoroda toxiriylar mavqei sust edi. 874 yilda Xusayn ibn Toxir Xorazm shaxarlarini talayotgan bir paytda Buxoro zodagonlari iltimosi bilan nasr Buxoroga Ismoil ibn Ahmad (849-892 yy.)ni hokim qilib jo'natadi.

Nasr Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzishga kirishdi. 875 yilda u Shovgar (Turkiston yaqinida)ni qo'lga kiritdi. Xalifa Muhtamiddan Movarounnahrni boshqarish uchun yorliq olishga muvaffaq bo'ldi. Bu paytda Buxoroda kuchayib ketgan Ismoil akasiga tobeh bo'lishni istamadi. 888 yili ikki o'rtadagi jangda Nasr yengildi. 892 yilda Nasr vafot etgach, Ismoil Movarounnahrning yagona hukmdori bo'lib qoldi (892-907 yy.). 893 yilda u Tarozni, so'ng Istaravshanni qo'lga kiritdi.

Mustahkamlanib borayotgan Somoniylar davlatini zaiflashtirish maqsadida Arab xalifasi 898 yilda Movarounnahr hokimligidan Ismoilni tushirib, o'rniga safforiylar sulolasidan Amir ibn Laysni hokim etib tayinlash haqida yorliq jo'natadi. 899-900 yillardagi xarbiy to'qnashuvlarda Ismoil Amir ibn Lays boshliq safforiylar qo'shinlarini tor-mor keltirdi. Xalifa Ismoil ibn Ahmadni hokim sifatida tan olishga majbur bo'ldi.

Shunday qilib, Xorazm, Isfijob, Chag'oniylar va Xuttalondan tashqari (ularning hokimlari somoniylarga tobe edilar) ulkan hudud (Movarounnahr va Xuroson) somoniylar tomonidan bo'ysundirilgan edi. Ular bu yerda 100 yilcha hukmronlik qildilar.

Yurtga avval Nux, so'ngra Ahmad boshchilik qiladi. Ular xatto o'z nomlaridan misdan chaqalar zarb etadilar. Ahmad vafotidan (865) keyin

uning o'g'li Nasr I (865-892 yilda Samarqand hokimi; 875 yildan Movarounnahr amiri) Samarqandni markazga aylantiradi. Buxoro vohasi, Naxshab (Qashqadaryo), Chag'onrud (Surxondaryo) vodiylaridan tashqari Movarounnahrning barcha viloyatlarini birlashtirish va uni Xurosondan ajratib olish choralarini ko'radi. Toxiriylar davlatining barxam topishi bilan mustaqil bo'lish uchun qulay sharoit paydo bo'ladi. Chunki safforiylar Movarounnahrda hukmronlik qilishni uddasidan chiqarolmadilar. Buxoro zodagonlarining iltimosiga binoan, Samarqand hukmdori Nasr ibn Axmad Buxoroga noib qilib ukasi Ismoilni (874) yuboradi. Shunday qilib, IX asrning oxirgi choragida Movarounnahr Somoniylar tasarrufiga o'tgan.

Somoniylarning tobora kuchayib borishi Arab xalifaligini xavotirga solgan. Shu boisdan xalifa Safforiylar bilan Somoniylarni to'qnashtirib, Xuroson va Movarounnahrda o'z tahtini qayta tiklashga xarakat qiladi. Natijada 900 yilda ular o'rtasida boshlanib ketgan urush Ismoilning g'alabasi bilan tugaydi. Butun Xuroson Somoniylar qo'l ostida o'tadi. Xalifa Ismoilga hukmdorlik yorlig'ini yuborishga majbur bo'ladi.

Somoniylar o'z tasarrufidagi ulkan mamlakatni boshqarishda dastavval ixcham davlat mahmuriyatini tashkil etdilar. Mahmuriyat podsho saroyi va devonlar (markaziy hokimiyat)dan iborat edi. Narshaxiyning mahlumoti bo'yicha, Somoniylar hokimiyati, asosan, o'nta devon boshqaruvida idora etilardi. Ular orasida vazir devoni bosh boshqaruv mahkamasi bo'lib, davlatning mahmuriy, siyosiy va xo'jalik tartiboti uning bevosita nazorati ostida tutib turilardi. Barcha devon boshliklari vazirga tobe edi.

Nasr II ibn Ahmad (914—943) davrida Buxoroning Registon maydonida 943 yil Dor ul-mulk saroyi (vazirlar mahkamasi) va uning qarshisida devonlar uchun maxsus saroy qurilgan. Mahkama xizmatchilari arab va fors tillarini puxta egallagan, Qurhon tafsiri va shariatning asosiy qoidalarini yaxshi biladigan, turli fanlardan yetarlicha xabardor bo'lgan savodli aslzodalardan tanlab olingan. Viloyat devonlari mahalliy hokimga, ayni vaqtda markaziy mahkamaning tegishli devoniga bo'ysunardi. Viloyat hokimlari bahzan vazir deb yuritilardi. Ular sulolaviy xonadonga tegishli amirzodalar yoki sobiq mahalliy hukmdorlar hamda zodagon dehqonlardan tayin etilardi. Movarounnahrda islom ruhoniylarining obro'si oshib, poytaxt Buxoro Sharqda islom dinining eng nufuzli markazlaridan biriga aylandi. Shaxarlarda ko'lab ibodatxonalar, jumladan jome masjid, xonaqoh (g'aribxona)lar bino qilindi. Xuddi shu davrda musulmon Sharqidagi ilk madrasalardan biri (Forjak) Buxoro shaxrida qad ko'tardi. Masjid, Madrasa va xonaqoxlar qurish uchun maxsus joylar va ularning sarfu xarajati uchun katta-katta mulklar ajratilib beriladi. Natijada diniy muassasalar tasarrufidagi yer-mulklar tobora ko'payib, yangi turdagi xo'jalik — **vaqf** tarkib topadi. Shu tariqa masjid va madrasalar tasarrufida katta-katta yer va mulklar to'plana bordi.

Somoniylar mamlakatni tashqi va ichki dushman xurujlaridan muhofaza qilishga katta e'tibor beradilar. Somoniylar davridagi siyosiy barqarorlik va iqtisodiy ko'tarilish madaniy hayotning ravnaqiga imkon berdi. Buxoro, Samarqand, Nasaf, Gurganj, Marv va Nishopur kabi shaxarlar ilmiy va madaniy markaz sifatida taraqqiy qila boshlaydi. Bu davrda

qishloq aholisining aksariyati sug'diy, turkiy yoki xorazmiycha so'zlashsa-da, markaziy shaxarlarda forsiy-dariy adabiy tili vujudga keladi. Bu til davlat tili sifatida qabul qilinadi. Forsiy-dariyda nazm, nasr va ilmiy asarlar yozila boshlaydi. IX-X asrlarda, ayniqsa, Buxoro shaxri madaniy jihatdan yuksaladi. poytaxtda amir saroyida turli soxalarga oid qo'lyozma kitoblar saqlanadigan kattagina kutubxona barpo etiladi.

X asrning 1-yarmida Yettisuv va Sharqiy Turkistonda yashovchi ko'chmanchi turk qabilalari (qarluq, chigil va yag'mo)ning ijtimoiy va iqtisodiy hayotida katta o'zgarishlar bo'ldi. Ularning o'troq hayotga o'tishi tezlashdi. Bunday o'zgarishlarda Yettisuv va Qashqar orqali o'tgan qadimgi karvon yo'li ham muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, qo'shni Movarounnahrning o'troq aholisi bilan olib borilgan iqtisodiy va madaniy aloqalarning tahsiri kuchli bo'ldi. X asr o'rtalarida Issiqko'lning janubi va Qashqarda yashagan yag'mo qabilalari kuchayib, qo'shni chigil qabilalari bilan yagona ittifoqqa birlashadi. So'ngra ular Yettisuvdagi qarluqlarni bo'ysundirib, u yerda Qoraxoniylar davlatini tashkil qildilar. Davlat sulolasining asoschisi Abdulkarim Sotuq Bug'roxon (Qoraxon) nomi bilan atalgan.

992 yilda Qoraxonning nabirasi Xorun ibn Muso ibn Sotuq Bug'roxon boshliq qabilalar Movarounnahrga hujum qilib Buxoroni deyarli qarshiliksiz ishg'ol etganlar, chunki Somoniylarning markaziy hokimiyati ichki ziddiyatlar tufayli kuchsizlanib qolgan edi. Bug'roxon vatani Qashqarga qaytishda yo'lda vafot qiladi. Vaziyatdan foydalanib amir Nux ibn Mansur Buxoro taxtini G'azna hukmdori Sabuqtegin yordamida 994 yil qaytarib oladi. Nux Sabuqteginni Xuroson noibi qilib tayinlaydi.

Natijada G'azna va Xurosonda Sabuqtegin va uning o'g'li Mahmudning siyosiy hukmronligi mustahkamlanib, **G'aznaviylar davlati** tashkil topadi.

996 yilda Qoraxoniylar Nasr ibn Ali boshchiligida Movarounnahrda yana hujum boshlaydi. Sabuqtegin o'g'li Maxmud G'aznaviy boshchiligida 20 minglik qo'shin yuborib Buxoroni egallaydi. Somoniylarga Movarounnahrning markaziy qismigina beriladi, xolos. Biroq 999 yil bahorida Nasr ibn Ali Buxoroni bosib olib, Somoniylar hokimiyatiga butunlay barham berdi. Qoraxoniylar bilan 1001 yil tuzilgan shartnomaga muvofiq Amudaryodan shimoldagi yerlar Qoraxoniylar tasarrufiga o'tadi. Sulton Mahmud esa Amudaryodan janubdagi yerlar, shu jumladan, Xurosonga hukmdor bo'lib oladi. Qoraxoniylar davlati poytaxti dastlab Qashqarda, so'ng Bolasog'un, O'zgan shaharlarida bo'lib, keyin yana Qashqarga ko'chirilgan. Shunday qilib, X asr oxirida Somoniylar mulki o'rnida 2 ta davlat tashkil to'di: biri, - Qashqardan Amudaryogacha cho'zilgan, SHarqiy Turkistonning bir qismi, Yettisuv, Shosh, Farg'ona va qadimgi Sug'dni o'z ichiga olgan Qoraxoniylar davlati; 2-si Sabuqtegin va Sulton Mahmud davrida kuchaygan va Hindiston shimoldan Kaspiy dengizi janubga qadar viloyatlarni egallagan G'aznaviylar davlati edi.

Garchi Amudaryo chegara qilib belgilangan bo'lsa-da, ammo Qoraxoniylar Xurosonni o'z tasarrufigidagi viloyatlar deb hisoblardi. Oradan ko'p vaqt o'tmay Qoraxoniylar bilan G'aznaviylar o'rtasida shiddatli urushlar boshlanadi. 1006 va 1008 yillarda Qoraxoniylar Xuroson ustiga 2 marta qo'shin tortadilar, Balx, Tus va Nishopur

shaxrilari zabt etiladi. Lekin Sulton Mahmud G'aznaviy Xurosonni o'z davlati tasarrufida saqlab qolishga muvaffaq bo'ladi va 1011-12 yillarda Qoraxoniylar bilan sulx tuzadi. Xorazmda 1016 yil xalq qo'zg'oloni vaqtida xorazmshox Abulabbos Mahmud qatl etildi. 1017 yilda Sulton Mahmud shu bahonada Xorazmni bosib oladi. Xorazmga o'z hojibi Oltintoshni noib tayinlab, ko'p boylik va asirlar bilan G'aznaga qaytadi. U o'zi bilan birga Abu Rayxon Beruniy va boshqa bir qancha olim va shoirlarni majburan olib ketadi.

1030 yillarda Sirdaryo etaklarida yashovchi o'g'uzlardan ajralib **Saljuqiylar** nomi bilan Xurosonga borib o'rtnashgan o'g'uz qabilalari kuchayib, ularga o'z vaqtida yer-mulk berib homiylik qilgan G'aznaviylarga qarshi taziq ko'rsatadilar. Saljuqiylar bilan jiddiy kurash boshlanadi. Bunday vaziyatdan foydalangan Qoraxoniylarning mahalliy hukmdori Ibrohim Bo'ritakin 1038 yilda Amudaryo yuqori oqimidagi viloyatlardan Xuttalon, Vaxsh va Chag'oniyonni Mashud G'aznaviydan tortib oladi. Ko'p vaqt o'tmay u Movarounnahr, jumladan, Farg'onani o'ziga bo'ysundirib, mustaqil siyosat yurita boshlaydi. Natijada, Qoraxoniylar 2 mustaqil davlat — poytaxti Bolasog'unda bo'lgan Sharqiy qoraxoniylar va markazi Samarqand bo'lgan Movarounnahr Qoraxoniylar davlatiga ajrab ketadi. Bu g'alabalardan so'ng Ibrohim Tamg'ach «Bug'roxon» unvo-niga sazovor bo'ladi.

1040 yilda **Dandanakon jangida** Mashud G'aznaviy saljuqiylardan qaqshatqich zarbaga uchraydi. G'aznaviylar tasarrufida G'azna, Kobul, Qandaxor va Panjob viloyatlarigina qolib, u kichik davlatga aylanadi. Saljuqiylar To'g'rulbek zamonida 1055 yilda Bag'dodda o'z siyosiy

hukmronliklarini o'rnatadilar. Abbosiy xalifa esa faqat diniy ishlardagina mutasaddi bo'lib qoladi va To'g'rulbekni «Sharq va G'arb sultoni» deb tan olishga majbur bo'ladi. Saljuqiylar Xorazm tomondan Xuttalon, Chag'oniylar, Jand va Savronga yurish qilib, Qoraxoniylar bilan bir necha bor to'qnashadilar. 1130 yilda sulton Sanjar Qoraxoniylar davlati poytaxti Samarqandni ishg'ol etadi. Natijada Qoraxoniylar Sanjarga tobe bo'ladilar.

Qoraxoniylar hukmdorlari garchi o'troq hayotga ko'chmagan bo'lsalar ham, dehqonchilik vohalari va shaxar madaniyatiga e'tibor bilan qaradilar. Bolasoqun, Qashqar, Tarozi, O'zgan, Samarqand va Buxoro poytaxt shaxarlar bo'lib qoldi. Ayni vaqtda Movarounnahr, ayniqsa, Zarafshon vodiysida ko'pgina dehqonchilik maydonlari va bog'lari to'talib yaylovga aylantirildi. Natijada mulkdor dehqonlar bilan chorvador ko'chmanchilar o'rtasida ziddiyat kuchayib, Qoraxoniylarning tazyiqi bilan nufuzli dehqonlar yer-mulk va qo'rg'onlarini tashlab ketishga majbur bo'ldilar. Ular mamlakatda tutgan siyosiy mavqelaridan ham ajraldilar. Shu vaqtdan «dehqon» istilohi ham «qishloq hokimi»ni anglatuvchi asl mahnosini yo'qota borib, qishloq mehnatkashlari uchun umumiy nomga aylandi. Zodat dehqonlardan musodara qilingan yerlar davlat tasarrufi («mulki sultoniylar»)ga o'tkazildi. Bunday yerlardan tushgan daromad davlat xazinasini to'ldirardi, mahlum qismi esa iqto qilib berilardi.

Xorazm davlati o'z mustaqilligiga g'aznaviylar va saljuqiylar hukmronligiga qarshi kurash jarayonida erishdi. 996 yilda, Shimoliy Xorazm shoxi Mahmud ibn Muhammad (995-997 yy.) ikki qismga

bo'linib ketgan o'lkani birlashtirib xorazmshox unvonini oladi va Urganchni o'z poytaxtiga aylantirdi.

Mahmud G'aznaviy Xorazmning moddiy boyliklari va madaniy salohiyatini (Urganchda tashkil etilgan Mahmud akademiyasini nazarda tutilmoqda) hisobga olib, Xorazm shoxini o'ziga tobe etish maqsadida, o'z singillarini xorazmshox Ali ibn Mahmud (997-1009 yy.), uning ukasi Mahmud ibn Mahmudga uzatadi. Mahmud ibn Mahmud (1009-1016 yy.) shoxligining so'nggi yillarida Mahmud G'aznaviyning Xorazmga nisbatan taziqi kuchaydi. 1017 yilda shoxning Xazorasmda turgan qo'shinida Mahmudga qarshi fitna uyushtirilib, suiqasd qilinadi. Isyonchilardan o'ch olish bahonasida Mahmud G'aznaviy Xorazmga bostirib kirib uni egallaydi, Xorazmda o'z odami Oltintoshni noib qilib qoldiradi. 1043 yilda Xorazmni saljuqlar bosib oldi. Saljuq sultoni Malikshox (1072-1094 yy.) o'z tashtdori Anushteginni 1076 yilda Xorazm hokimi etib tayinlaydi. Sulton Sanjar (1118-1157 yy.) hukmronligi davrida Anushteginning nabirasi Otsiz (1127-1156 yy.) Xorazmning mustaqilligi uchun kurashdi. O'z davlatini kuchaytirish maqsadida Jand shaxrini, g'arbda Mang'ishloq yarim orolini bosib oldi. Sulton Sanjar uning bu jurhatidan tashvishga tushib, Otsizning tahzirini berish maqsadida, 1138 yil unga qarshi qo'shin tortdi. Otsiz yengilib, chekindi. Otsiz o'z aql-zakovati va mohir sarkardaligi tufayli yana hukmdor etib tayinlandi.

Mustaqillik uchun kurashni Otsizning o'g'li Elarslon (1156-1172 yy.) davom ettirdi. Lekin natijasiz bo'ldi. 1172 yilda Xorazmni qoraxitoylar bosib oldi. Bu vaqtda Elarslon vafot etgan edi. Uning o'g'li Tekesh

(1172-1200 yy.) davrida Movarounnahrda siyosiy vaziyat birmuncha keskinlashdi. Lekin qoraxitoylar tahsiri susaydi. Xurosondagi tartibsizliklardan foydalanib, Tekesh 1187 yilda Nishopurni, 1192 yilda Rayni, 1193 yilda Marvni bosib olib, Eronda mavqeini mustahkamladi. Bir oydan so'ng Saljuq sultoni To'g'rul II ning qo'shinlari tor-mor keltirilib, Sharqiy Eronni o'z davlatiga qo'shib oldi. 1195 yilda Tekesh xalifa Nosir qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratib, Iroqni talon-taroj qildi. Bu xol iroqliklar g'azabiga sabab bo'ldi. Xorazm qo'shinlarining ko'pi qirib tashlandi, qolgani arang qochib qutuldi. Tekesh vafotidan keyin uning o'g'li Alouddin Muhammad (1200-1220 yy.) o'z ehtiborini qoraxitoylarni tor-mor etib, Buxoroni egallashga qaratdi. Buxoro hunarmandlarining 1206 yilda qoraxitoylarga qarshi ko'tarilgan qo'zg'oloni uning bu maqsadini amalga oshirish uchun bir bahona bo'ldi. Qo'zg'olonga qalqonsoz hunarmand Malik Sanjar boshchilik qildi. Alouddin Muhammad qo'zg'olonni bostirib, Buxoroni egalladi. So'ng 1210 yilda qorluqlar bilan ittifoq tuzib, qoraxitoylarni tor-mor keltirdi va O'zganddagi xazinasini qo'lga kiritdi. 1211 yilda qoraxonlar xoni Usmon bilan birga qoraxitoylarga qarshi Yettisuvga qo'shin tortdi. Tarozi (Talas) yonidagi jangda go'rxon Toyanguning kuchlarini tor-mor keltirib, o'zini asir oldi. Bu g'alabadan keyin Alouddin Muhammad Usmonga o'z qizini nikoxlab berdi. Qipchoqlardan tuzilgan, Samarqandda qoldirilgan qo'shin aholiga tazyiq o'tkazadi. Bunga qarshi aholi qo'zg'olon ko'taradi. Usmonxon qo'zg'olonchilarga xayrixox edi. Xorazmshox qo'zg'olonni bostirib, Usmonxonni ham qatl ettiradi, natijada Samarqand mulkini ham o'z yerlariga qo'shib oladi.

XIII asr boshida Xorazm juda keng maydonni egallagan buyuk davlatga aylangan edi. Uning chegarasi Orol va Kaspiy dengizi sohillaridan Iroqqa qadar borar, janubi-sharqiy chegarasi G'azna viloyatidan, Yettisuv va Dashti Qipchoqdan o'tar edi. Poytaxti Gurganj shahri bo'lgan. Saroyda Muhammad Xorazmshox «Iskandari Soniy» (Ikkinchi Iskandar) deb ulug'langan.

Movarounnahr aholisining Qoraxitoylar zulmu asoratidan ozod bo'lib, Xorazm davlatiga birlashishi, shubxasiz, ijobiy tarixiy voqea edi. Ammo Xorazmshoxning harbiy yurishlari, soliq siyosatidagi beboshlik, amir va mahmurlarning jabru zulmi, majburiy ishlab berishlar mamlakat fuqarolarining moddiy ahvolini og'irlashtirdi. Natijada 1210 yilda O'trorda, 1212 yilda Samarqandda qo'zg'olon ko'tariladi. Xar 2 qo'zg'olon shafqatsizlik bilan bostiriladi.

Qo'zg'olon bostirilgach, Xorazmshox Movarounnahr viloyatlaridagi qoraxoniylar noiblarning barchasini qatl qilishga buyurdi. Shu bilan Movarounnahrda qoraxoniylar sulolasi hukmronligi uzil-kesil tugatildi. O'zgan hamda Samarqand shaxrilarida Muhammad Xorazmshox nomi bilan tangalar zarb etildi. Biroq Xorazm davlatida sinfiy kurash va viloyat hukmdorlarining isyonlari davom etaverdi, lashkarboshilar orasida va saroyda fitnalar kuchaydi. Ko'pgina mansablar, odatga ko'ra, otabobodan meros bo'lib o'tar edi. Yuqori mansabdorlik davlatdan iqtodiy yerlarini (umrbod foydalanish uchun ajratilgan katta yer maydoni) olish bilan bog'liq edi. Iqtodorlar davlat tang ahvolga tushib qolgan paytlarda o'z vazifalarini tashlab ketar va podshoga itoatsizlik qilib, o'zboshimchalik bilan yo'l tutar edilar. Shunday qilib, sirtidan juda

kuchli, nufuzi buyuk ko'ringan Xorazmshoxlar davlati siyosiy jixatdan unchalik mustahkam emas edi. Xatto ayrim viloyat hokimlari xorazmshoxlarga nomigagina bo'ysunib, amalda deyarli mustaqil edi.

Boshqaruv tizimi. G'aznaviylar davlatida boshqaruv tizimi o'zining murakkabligi bilan diqqatni jalb etadi. Boshqaruv tizimining markazida dargoh va devonlar (vazirliklar) turgan. Dargohga oliy hukmdor faoliyati bilan bog'liq xizmatlar va amallar kirgan. G'aznaviylar davrida hojiblik xizmatining o'рни alohida e'tiborga loyiq. Dargoh faoliyatida si'ohdor (saroy xizmatchisi), davotdor (oliy hukmdorning hujjatlarini yurituvchi), 'ardador (mahram; xufiya ishlarni bajaruvchi), martabador (saroydagi o'rta amaldor), xazinachi, joma xona va farrosh kabi mansab va xizmatlarning o'рни katta bo'lgan. Devonlar ijroiya idoralari bo'lib, o'sha davr manbalarida 5 ta devon nomi uchraydi. Ular vazir devoni (bosh vazir devoni); harbiy ishlar devoni; elchilik va boshqa rasmiy tadbirlarni yuritish devoni; moliya devoni; 'ochta-xabar devoni. Viloyat boshlig'ini voliy deganlar va uni oliy hukmdor tayinlagan. Viloyatlardagi boshqaruv ishlarni amid olib borgan. Shahar boshlig'ini rais deb ataganlar. Shahar miqyosida shihna, kutvol (qal'a komendanti), sohibi devon (ma'muriy boshqaruvchi) kabi amaldorlar ham faoliyat ko'rsatganlar. G'aznaviylar davlati qudratli harbiy qo'shinga ega edi. Oliy qo'mondonlik hukmdorning ixtiyorida bo'lgan. Bosh qo'mondon — si'ohsolor esa sulolaning eng ishonchli vakili yoxud shu xonadon a'zosi hisoblangan. Masalan, Mahmud G'aznaviy si'ohsolor mansabiga ukasi Muhammad Yusufni loyiq to'gan. Yuqori darajadagi harbiy lashkarboshilar salor, o'rta darajadagilari sarhang deyilgan. Harbiylar o'z 'ochta-xabar va

qozilik xizmatlariga ega bo'lgan. G'aznaviylar qo'shinida harbiy kemalar (daryo va dengiz floti) ham mavjud edi.

Ilm fan va madaniyat. G'aznaviylar davlati davrida ilm-fan, madaniyat va adabiyot rivojlangan. Mahmud G'aznaviy ona tilisi turkiydan tashqari fors, arab hatto pahlaviy tillarini ham mukamal bilgan va o'zi she'rlar bitgan. Uning saroyida 400 dan ortiq olim, shoir va san'atkorlar to'planib faol ijod bilan shug'illanganlar. Abu Rayhon Beruniy shuningdek Farruxiy, Unsuriy, Gardiziy, Bayhaqiy shular jumlasidan bo'lib G'aznada yashaganlar. Beruniy o'zining "Qonun Mas'udiy" va Bayhaqiy o'zining "Tarixi Mas'udiy" asarlarini Mas'ud G'aznaviyga bag'ishlashgan. Firdavsiy mashhur "Shohnoma" dostonini Muhammad G'aznaviyga taqdim etgan. Biroq buyuk tabib Abu Ali ibn Sino G'aznaga sulton saroyiga borishdan bosh tortgan. Shimoliy Hindistonni islomlashtirish jarayoni aynan G'aznaviylar davrida boshlangan. G'aznaviylar davlatida qurilish va me'morchilik ham katta e'tibor qaratilgan. G'azna, Balx, Nishopur, Lohur va boshqa shaxarlarda ko'plab madrasalar, masjidlar, xonaqolar, saroylar va bog'lar, kutubxonalar faoliyat ko'rsatgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. «O'zbekiston». 1998 y.
2. Abdulg'oziy. SHajarai Turk. T. «Cho'lpon». 1992.
3. Axmedov B. O'zbek ulusi. T. «Nur». 1992 y.
4. Jabborov I. O'zbek xalqining etnografiyasi. T. «O'zbekiston». 1994.
5. Zaki Validiy. O'zbek urug'lari. T.1992.
6. Ziyo Ukukaldi. Turkchilik asoslari. T.1994.
7. Usmon. Turon. Turkiy xalqlar mafkurasi. T. «Cho'lpon». 1995.
8. Xasan Ato Abdushiy. Turkiy qavmlar tarixi. T.«Cho'lpon». 1994.
9. O'zbekiston tarixi. T.Universtitet. 1996.